

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53409-4.01

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**MOLIYaviy HISOBOT
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya
hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Xasanov B. A.,
k.o'q. Rizaev N. Q.,
ass. Qurbonboev J. E.

Taqrizchilar: prof. Voxidov S. V.,
dots. Mamatov Z. T.

"Moliyaviy hisobot" fanidan ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan. O'quv dasturida jami 6 bo'lim mavjud bo'lib, unda "Moliyaviy hisobot" fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim va ko'nikmalar, amaliy va seminar mashg'ulotlar bo'yicha ishlarning minimal miqdori, kompyuter va axborot texnologiyalarini qo'llash, fan dasturi, amaliy va seminar mashg'ulotlari, kurs ishi mavzularining ro'yxatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlari va boshqa didaktik materiallar ro'yxati, talabalarning reyting asosida baholash bo'yicha o'zlashtirishning nazorati hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Необходимость обучения студентов по дисциплине "Финансовая отчетность" заключается в том, что организация бухгалтерского учета в нашей республике в соответствии с международным стандартом требует введения этого предмета.

Данная программа по предмету "Финансовая отчетность" полностью отвечает всем требованиям. Программа состоит из 6 частей. В них содержится следующие сведения: цель и задача предмета, связь с другими предметами, знания и навыки соответствующие СГО, минимальное количество семинаров и практических занятий, применение компьютеров и информационной техники, программа предмета, семинарские занятия, список тем курсовых работ, наглядно-показательные материалы по рекомендуемым темам, список учебных фильмов и других дидактических материалов, контроль успеваемости студентов по рейтинговой системе и список рекомендуемой литературы.

The necessity of training of the students to the "Financial statement" consists of the organization of Accounting in our republic according to the international standarts that requires conducting this subject.

The created program of the "Financial statement" subject - completely answers all put requirements. The program consists of 6 parts. They contain the following items:

The purpose and task of a subject, communication with other subjects, knowledge and skills appropriate to the SSE (Standards of State Education), minimum quantity of

seminars and practical employment, application of computers and technological information, program of the subject, seminar lessons, the list of themes of "course works", evident - indicative materials on recommended themes, the list of educational films and other materials, control of progress of the students on a rating system and list of the literature for usage.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mulk shaklidan kat'iy nazar barcha muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning mulki haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish va umumlashtirish buxgalteriya hisobi yordamida amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya hisobi korxonaning moliyaviy va mulkiy holati haqida to'liq ma'lumot beradi. Korxonalar va tashkilotlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari umumlashtirilib bir hisob davriga korxonalar (tashkilot, muassasa)ning buxgalteriya hisoboti tuziladi. Ushbu hisobotda korxonaning ma'lum bir davrdagi mulklarining holati, korxonani hamda uning moliyaviy natijalari kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

Shulardan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini nazorat qilish, uning xo'jalik faoliyatiga baho berish va korxonaga yangi investitsiyalarni jalb qilishda hisobot ma'lumotlaridan foydalanish juda muhimdir.

"Moliyaviy hisobot" fani iqtisodchilarni buxgalteriya hisobi, audit va tahlil sohasida tayyorlashdan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Fanni o'rganish natijasida kelgusi iqtisodchi mutaxassislarda korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga baho berish, iqtisodni boshqarish va moliyaviy siyosat bo'yicha ichki iste'molchilarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlarni tayyorlash bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni shakllantirish hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi, audit, tahlil sohasidagi malakali mutaxassislarni tayyorlashda "Moliyaviy hisobot" fani asosiy mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

"Moliyaviy hisobot" fanini o'rganishning asosiy vazifalaridan biri buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

O'qitishning maqsadi va vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

Mustaqil Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishida malakali buxgalter, auditor mutaxassislarini tayyorlashga zarurat tug'diradi.

O'quv rejasiga muvofiq buxgalter va auditor mutaxassisliklari "Moliyaviy hisobot" fanini o'rganadi. Korxonada va xo'jaliklardagi mablag'lar va ularning tashkil topishi manbalarining harakatini, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, korxonada va xo'jaliklarning mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarini shakllantirish hamda hisobotlar tuzish, mamlakatimiz korxonalarida buxgalteriya hisobi yordamida shakllanadigan davriy, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini haqqoniyligi ta'minlash, tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to'g'ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar asosida o'rgatadi.

"Moliyaviy hisobot" fani korxonalarining mulkiy va moliyaviy faoliyatini hisobga olishda o'zining usul, uslubiyatiga ega bo'lishi bilan birga quyidagi fanlar bilan bevosita bog'liqligi bo'lsa ham talabalarga chuqur o'rgatiladi: "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Audit", "Moliyaviy va boshqaruv tahlili", "Moliya", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pul, kredit va banklar", "Menejment", "Marketing", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Sug'urta ishi", "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Huquqshunoslik" va boshqalar.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

"Moliyaviy hisobot" fani buyicha talabalarga quyidagilarni bilish talab qilinadi:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida "Moliyaviy hisobot"ning buxgalteriya hisobi, tahlil va audit tizimida tutgan o'rni;
- "Moliyaviy hisobot" fani korxonaning moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga baho berishning asosiy mezonini ekanligi;
- buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy tamoyillari va qaydlarini o'rganish zaruriyati;
- hisobot ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va ular asosida hisobot tuzish;
- hisobot ma'lumotlarini yig'ish jarayonida buxgalterlar tomonidan hal qilinadigan muammolarni bilishlari;
- hisobot ma'lumotlari asosida korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga baho berishni;
- hisobotni xalqaro standartlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash;
- shu sohada ilmiy iqtisodiy adabiyotlarni mustaqil o'rganish;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarini hamda qonunlarini mukammal o'rganishi;
- mutaxassislik fani bilan bog'liq bo'lgan fanlarni mukammal o'rganishi;

- fan va texnika yutuqlariga qiziquvchan o'ziga nisbatan talabchanlik, o'rganayotgan faniga, o'z vataniga fidoyi bo'lishi kerak.

O'qitish jarayonida talabning mustaqilligini ta'minlash uning ilmga bo'lgan qiziqishini shakllantirish lozim. Ko'proq talabalarning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish zarur.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Talabalarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- talaba o'z bilimni o'zi baholaydigan sharoitni yaratib berish;
- talabalarning bilimni tayanch iboralari asosida baholashni joriy qilish;
- talabalarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbar-ligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- iqtidorli talabalar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslarni tashkil qilish va h.k.;
- amaliy mashg'ulotlarda buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarga oid masalalar tizimi va "ish o'yinlarini"ni qo'llash.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Moliyaviy hisobot" fani talabalarga o'quv rejasi bo'yicha VII semestr o'qitilgani sababli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga bo'linganligi boisdan ularni semestrlararo o'quv bo'limlari tomonidan rejalashtiriladi.

"Moliyaviy hisobot" fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun talabalar korxonada va xo'jaliklarda amaliyot o'taydilar. O'quv jarayonida auditoriyada va amaliyotda olgan bilimlari o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

"Moliyaviy hisobot" fanini o'rganish bo'yicha "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishlari hamda Oliy ta'limning bilim sohasi bo'yicha boshqa yo'nalishlar uchun o'quv rejasida jami 72 soat belgilangan. Shundan ma'ruzaga 36 soat, amaliy mashg'ulotga 36 soat, ajratilgan. "Moliyaviy hisobot"dan keyingi bloklarda talabalar iqtisodiy tahlil va audit fanlarini o'rganishda foydalanadilar, oliy o'quv yurtini

tamomlagandan so'ng iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qo'llanadigan hamda korxonalarda mavjud mablag' manbalarning holati va harakatini o'rganishda foydalanadilar.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari

O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobot to'g'risidagi tamoyillar hamda ularning mazmuni

Korxonalarining moliyaviy hisoboti-ularning xo'jalik faoliyatini ma'lumot manbai ekanligi, O'zbekiston Respublikasida hisobotni normativ asosida tartibga solish ("Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, *Buxgalteriya hisobi milliy andozalari va Moliya vazirligining ko'rsatmalari*).

Korxonalar hisobotining turlari: statistik, moliyaviy (chop etiladigan). Turli xil ko'rsatkichlar va hisobot shakllarining o'zaro bog'liqligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotning mazmuni va vazifalari. Moliyaviy hisobotning statistik hisobotdan farqi. *Bozor infrastrukturasi. Mavjud davlatlarda buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalanuvchilar.* Bozor iqtisodiyotida moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar tomonidan quyiladigan umumiy talablar. Hisobot shakllariga umumiy ta'rif.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro hisob andozalariga o'tishi. Moliyaviy hisobot shakllarining tarkibi va mazmunining yaqinlashuvi (konsolidatsiya).

Yillik va davriy moliyaviy hisobotning tarkibi: hisobot shakllari, hisobot moddalarining mazmuni, tushuntirish xatining tuzilish sxemasi.

Yig'ma va umumlashgan buxgalteriya hisoboti, ularning farqi va tuzilish xususiyatlari.

Yillik hisobotni tuzishning asosiy qoidalari va bosqichlari.

Buxgalteriya balans (1-shakl)

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya balansining mohiyati va vazifalari. *Balans - korxonalar mol-mulkini ma'lum davrdagi pul o'lchovi.* Balansda barcha mulkiy munosabatlarning aks ettirilishi.

Balansning tuzilishi. O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda buxgalteriya balansini tuzilish tarkibining mazmuni. Balans aktivi va passividagi moddalarning tarkibi va turkumlanishi, uning moddalarining tasnifi.

Buxgalteriya balansining pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot bilan o'zaro bog'liqligi. Buxgalteriya balansining turlari va shakllari: aylanma va shaxmatli balans:

balans - brutto va balans - netto, ularning farqlari; dastlabki, yig'ma, yig'ma-umumlashtirilgan (konsolidiruemiy) balanslar, ularning farqlari va tuzilish xususiyatlari.

Balansning alohida moddalarini baholash usullari. O'zbekistonda balansning alohida moddalarini baholanishini normativ tartibga solinishi.

Inflyatsiya sharoitida balans moddalarini baholashga doir xalqaro standartlarning tasniflari.

Balansning haqqoniyligi: absolyut va nisbiy; balansning xaqqoniyligiga erishish yo'llari (balansning barcha moddalarini to'la inventarizatsiya qilish; korxonalar mol-mulkini miqdoriy tarkibini aniqlash va baholash, turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tekshirish, aktiv va passiv schyotlar ma'lumotlarini to'g'ri aks ettirish).

Buxgalteriya balansini tuzish texnikasi.

Bosh daftar va boshqa hisob registrlaridagi balansning alohida moddalari bo'yicha ma'lumotlarni olish tartibi.

Buxgalteriya balanslari ma'lumotlarini qalbakilashtirish va uning oqibatlari.

Xo'jalik sub'ektini moliyaviy holatiga baho berishda buxgalteriya balansining ma'lumotlaridan foydalanishi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning mohiyati va mazmuni.

O'zbekiston Respublikasi va xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish tarixi. 2-sonli hisobot shaklining ko'rsatkichlari, ularning tashkil topish tartibi va hisobot shaklida ma'lumotlarni hisob registrlaridan aks ettirilishi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot(2 shakl)dagi asosiy ko'rsatkichlar: tushum, daromad, foyda, zarar, xarajatlar, sotilgan mahsulot tannarxi va boshqalarning mazmuni. 2-shakl hisobotining turli deklaratsiyalar va soliq organlariga taqdim etiladigan hujjatlar bilan o'zaro bog'liqligi. Daromad (foyda)ning tashkil topishi, taqsimlanishi, ularni hisobotni aks ettirilishi va soliqlar hisoblashda ishtirok etishi.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy vositalarning korxonani ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatida tutgan o'rni.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning tuzilishi: asosiy vositalarning turlari. *Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, asosiy vositalarning eskirishi, asosiy vositalarning qoldiq qiymati.*

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot muddatlariga tasnif. Hisobotni tuzish tartibi. Asosiy vositalarning baholanishi va qayta baholanishi. Hisobot ma'lumotlarini umumlashtirish.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl)ni tuzishning xalqaro amaliyotdagi hisobot shakli bilan taqqoslash.

Pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot (4-shakl)

Hisobot ma'lumotlarini ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun mo'ljallanganligi. Xalqaro amaliyotda hisobotni keng qo'llashga ta'sir qiluvchi omillar. Hisobot ko'rsatkichlari.

*Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishning ikki usuli**. Hisobotni tezkor moliyaviy rejalashtirish va korxonaning pul oqimlari harakatini nazorat qilish hamda balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga o'zaro bog'liqligi. Respublikada amal qilinayotgan "Pul oqimlari harakati to'g'risidagi hisobot" (4-shakl) tuzilishining xalqaro amaliyotdagi hisobot shakli bilan taqqoslanishi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl)

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning mazmuni va tarkibi. Yakka mulkchilikka asoslangan xususiy kapital. Sherikchilik korxonalarida xususiy kapital. *Hissadorlik jamiyatlaridagi xususiy kapital*. Aktsiyalar chiqarish bilan bog'liq xo'jalik muomalalari. Dividendlar hisobi. Qayta sotib olingan xususiy aktsiyalar. *Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot*. Taqsimlanmagan foydani tuzatish tartibi va ular hisobidan ajratmalar.

Konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisoboti

Umumlashgan buxgalteriya hisoboti va uning yig'ma hisobotlardan umumiy farqi. Umumlashgan hisobot tuzishning xalqaro amaliyotdagi va O'zbekiston Respublikasidagi usullari.

Hisob siyosati va buxgalteriya hisoboti

Hisob siyosati va buxgalteriya hisobotining o'zaro bog'liqligi. Korxonada buxgalteriya hisoboti shakllaridagi ilovalarning tarkibi: fondlar harakati, qarz (zayom) mablag'larining harakati, moliyaviy qo'yilmalarning tuzilishi, valyuta mablag'larining harakati, tushuntirish xati va boshqalar. 5-shaklning mohiyati va maqsadli yo'naltirilganligi. Balansga ilova qilinadigan 5-shakl bo'limlarini tuzish texnikasi.* Tushuntirish xatining mazmuni va uning foydalanuvchilar uchun ahamiyati.

3. AMALIY VA SEMINAR DARSLARINING RO'YXATI

Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotning mazmuni va tarkibi

Korxonada hisobotning turlari: tezkor (operativ) hisobi, statistik hisoboti, buxgalteriya hisoboti.

Yillik va davriy hisobotning tarkibi: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, debitorlik va kreditorlik karzlari to'g'risida ma'lumotnoma, pul oqimlari harakati to'g'risida hisobot, tushuntirish xati va boshqalar.*

Buxgalteriya balansi (1-shakl)

Buxgalteriya balansi haqida tushuncha va uning ahamiyati. Balansning tarkibi va tuzilishi; balans aktivi va passivi.* Balans bo'limlari va moddalariga umumiy ta'rif: uzoq muddatli aktivlar, aylanma aktivlar, o'z mablag'larini manbalari, majburiyatlar.*

Balansning alohida moddalarini baholash.* Balansning buxgalteriya hisobotining boshqa shakllari bilan o'zaro bog'liqligi.

Buxgalteriya balansini tuzish texnikasi. Buxgalteriya balansi ma'lumotlarini olish (yig'ish) tartibi (bosh daftar, hisob registrlari).*

Korxonada xo'jalik faoliyatiga baho berishda buxgalteriya balansining ahamiyati.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl)

Moliyaviy natijalar to'g'risida tushuncha: foyda (daromad) va zarar (xarajatlar).*

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning tuzilishi; har bir hisobot moddasining tasnifi.

2-shakl hisobotidagi asosiy ko'rsatkichlar: tushum, daromad, foyda, zarar, xarajatlar, sotilgan mahsulot tannarxi va boshqalarning mazmuni.* Korxonaning hisobot davri oxiriga bo'lgan sof foydasining tashkil topishi.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl)

Asosiy vositalarga umumiy ta'rif va ularning korxonada ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatida tutgan o'rni.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning tuzilishi, hisobot moddalariga tasnif.*

Hisobotni tuzish tartibi.* Hisobot ma'lumotlarini buxgalteriya balansi bilan o'zaro bog'liqligi.*

Asosiy vositalar to'g'risidagi hisobotning xalkaro amaliyotdagi tutgan o'rni.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl)

Hisobotning tuzilishi: hisobot bo'limlari va ularga ta'rif. Hisobotning kirim va chiqim ustunlari.

Korxonaning pul mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'larning turlari va mazmuni.*

Hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar: ichki va tashqi foydalanuvchilar.*

Korxonada valyuta mablag'larining holati va harakati.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl)

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning mazmuni va tarkibi. Yakkalikka asoslangan xususiy kapital. Sherikchilik korxonalarida xususiy kapital. Hissadorlik jamiyatlaridagi xususiy kapital.* Qayta sotib olingan xususiy aksiyalar. Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot*. Taqsimlanmagan foydani tuzatish tartibi va ular hisobidan ajratmalar.

Konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) buxgalteriya hisoboti

Umumlashgan buxgalteriya hisoboti va uning yig'ma hisobotlardan farqi.* Umumlashgan hisobotni tuzishning xalqaro amaliyotdagi va O'zbekiston Respublikasidagi usullari. Umumlashgan hisobotni tuzishning ahamiyati.*

Hisob siyosati va buxgalteriya hisoboti

Hisob siyosati va buxgalteriya hisobining o'zaro bog'liqligi.

Korxonada buxgalteriya hisoboti shakllaridagi ilovalarning tarkibi: asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2-shakl), xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-shakl), tushuntirish xati va boshqalar.*

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

"Moliyaviy hisobot" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladi. Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari quyidagilardan iborat: Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotning mazmuni, turlari va unda qo'llaniladigan o'lchovlar. Korxonada mablag'larini va ularni tashkil topish manbalari. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun. Buxgalteriya hisobi milliy andozalari. Buxgalteriya hisobi schyotlari rejasini. Buxgalteriya balansining tuzilishi va mazmuni. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti va uning mohiyati. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot va uning tuzilishi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, uning mazmuni. Xususiy

kapital to'g'risidagi hisobot. Umumlashgan (konsolidirovannaya) hisobotning mohiyati. Hisob siyosati va uning korxonadagi buxgalteriya hisobini yuritishdagi roli.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun moddalari (1996 yil 30 avgust)ni o'rganish. Buxgalteriya hisobi milliy andozalarini o'rganish (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 1998 yil 28 iyuldan boshlan 21 ta). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risidagi Nizom". Buxgalteriya (moliyaviy) hisobot shakllarining tuzilishi va ularni o'rganish. Hisobot shakllarini to'ldirishda zarur ma'lumotlarni olish. (Bosh daftar, jurnal-orderlar, vedomostlar).

Talabalar "Moliyaviy hisobot" fanini o'rganishda axborot vositalaridan ya'ni internet tizimidan, jumladan quyidagi sayd va elektron pochталardan ham keng foydalanadi:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board);
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office);
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom);
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee);
5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants);
6. <http://www.uza.uz> (O'zbekiston Milliy Axborot Agentligining turli sohalarga doir kundalik yangiliklari);
7. <http://www.uzreport.com> (Kundalik biznes yangiliklari);
8. <http://www.referat.ru> (Referatlar to'plami).

Shuningdek, respublikada chop etilgan gazeta va jurnallardan mutaxassisligiga tegishli materiallarni oladi.

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Auditorlar palatasi, Malakali Buxgalterlar va Auditorlar Assosiatyasi, Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejasida jami 80 soat dars o'tish rejalashtirilgan bo'lib, shundan ma'ruzaga 40 soat, amaliy mashg'ulotga 40 soat ajratilgan. Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash turlar orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. "Moliyaviy hisobot"

fanidan talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 72 ga teng. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabaning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- ilmiy tezislarni tayyorlash;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalariga asoslangan "Yozma ish" usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Toshkent - 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 sonli Qarori "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risidagi Nizom. "O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari" oylik nashr. Toshkent -1999.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-son buyrug'i (1997 yillik va yarim yillik hisoboti to'ldirish to'g'risida). "O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari" oylik nashr. Toshkent - 1997.
5. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (№ 1-21) - T.: 1998-2000.
6. Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. - T.: Mehnat, 1999.
7. Moliyaviy hisob. KARANA korporatsiyasi. - T.: 2000.
8. Rizaqulov A.A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi. - T.: Fan, 1998.
9. Rizaqulov A.A., Ibrohimov A.K., Hasanov B.A., Usanov A.U., Mamatov Z.T. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. I-III tom. TMI va IUT, 1994.
10. Sotivoldiev. A., Itkin Yu. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. (Yangi schyotlar rejasi asosida), PB va AA-2002 , 1-2tom.

11. G'ulomova F. Buxgalteriya hisobi (o'quv qo'llanma). - T.: Mehnat, 2001.
12. Bakaev A.S. Shneydman L.Z. - Uchetnaya politika. - M.: Buxgalterskiy uchet, 1998.
13. Bakanov M.I., Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. - M.: Finansi i statistika, 1998.
14. Buxgalterskiy uchet (Kollektiv avtorov pod red. Bezrukix P.S.) - M.: Buxgalterskiy uchet, 1998.
15. Buxgalterskiy uchet (Kollektiv avtorov pod red. Kozlovoy E.P.). - M.: Finansi i statistika, 1999.
16. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari. 2000-2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari, Toshkent - 1997.
2. Ibragimov A., Karimov A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. - T.: O'zbekiston, 1999.
3. Plan schetov Buxgalterskogo ucheta i rekomendatsiya po ego primeneniyu. Pod red. Gadaeva E.F., Xasanova N.X. Tashkent - 1996.
4. Kiryanov Z. V. Teoriya buxgalterskogo ucheta. - M.: 1994.
5. Kozlova E. P., Parashyutin N. Z. Buxgalterskiy uchet. - M.: 1999.
6. Paliy V. Finansoviy uchet. - M.: 1996.
7. Jurnal nalogoplatelshchika 1999-2001 gg.
8. Umarova M.G. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi - T.: 1999.
9. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. - M.: O.O.O Askeri, 1996.
10. Yangi schyotlar rejasi. PB va AA-2002.
11. G'ulomova F. Samouchitel po buxgalterskomu uchetu. - T.: Mir ekonomiki i prava, 2000.
12. Pankov D. Buxgalterskiy uchet i analiz v zarubejnix stranax. - Mn: Ekoperespektiva, 1998.
13. Nikolaeva O. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti. - M.: URSS, 2001.
14. Chaya V., Chaya G. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti, GUP IPK "Ulyanovskiy Dom pechati", 2000.
15. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions, 1996.
16. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.

17. Securities Regulation in THE Unite States. NASD. Washington-2000.
18. The Istanbul Stock Exchange In a Historical Perspective. Written by Pfor. Haydar Kazgan / published by ISE.- Istanbul-1999.
19. The Work Of SEC. U.S. Securities and Exange Comission.-1999.
20. Sost accounting (a managerial emphasis) / USA. Mexico. Or Canada. 2001.
21. Financial accounting / USA. Mexico. Or Canada. 2001.